

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845203>

## JADIDLARNING XX ASR BOSHLARIDA JAMIYAT HAYOTIDAGI IJTIMOIY-MA'NAVIY QARASHLARI

**Norboyeva Dilbar Orifjonovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada jadidlar harakati namoyandalarining ma'rifatchilik bilan cheklanib qolmay, XX asr boshlarida jamiyat hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarga ham katta e'tibor qaratib, ushbu muammolar oqibatlaridan aholini ogoh etish hamda muammolar yechimiga qaratilgan ishlar sari xalqni targ'ib qilishga bag'ishlangan bir qator amaliy harakatlari tahliliga to'xtalib o'tilgan.

*Kalit so'zlar.* Jadid, ijtimoiy muammolar, siyosat, "ruslashtirish siyosati", Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Cho'lpon, Ismoilbek Gasprali.

### **Kirish**

Keyingi yillarda e'lon qilingan tadqiqotlarga qaraganda, XX asr boshlarida maydonga kelgan Turkiston jadidchiligining faoliyat doirasi ijtimoiy-siyosiy hayotda jadallik bilan kengaya borgan va ular garchi dastlab ma'rifatparvarlar sifatida ish boshlagan bo'lsalar ham, ko'p o'tmasdan ijtimoiy hayotning barcha muhim sohalariga doir ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini e'lon qila boshlaganlar. Afsuski, sho'rolar hukmronligi davrida jadidlarning milliy uyg'onish dasturiga jiddiy e'tibor qaratilmadi, aksincha jadidchilik qatag'on qilindi, ular tomonidan yaratilgan ulkan ma'naviy meros kamsitildi, ularni o'rganish esa ta'qiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yilning 24 yanvar kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida jadidchilik harakati namoyondalari merosini izchillik bilan o‘rganish lozimligini quyidagicha izohlab o‘tdi: “...Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”, degan edi.

### **Metodologiya**

Jadidlarning yangi milliy davlatchilikni tashkil etish, maktab-maorif va o‘qish-o‘qitish, tarixiy va madaniy-ma’naviy merosga yangicha munosabat ruhidagi maqola va tadqiqotlari bilan birga, Turkiston xalqlariga ijtimoiy hayotga doir fikr-mulohazalari ifoda etilgan ilmiy-publitsistik, pedagogik, badiiy asarlar ham yaratildi. Bu yo‘nalishdagi asarlar, tabiiyki, o‘tgan asr boshlarida boshlangan milliy uyg‘onish jarayonida ma’rifatchilik harakatining nechog‘lik katta va salmoqli kuch sifatida maydonga chiqqanini ko‘rsatadi. Jadid namoyondalari o‘z xalqining ziyoli va fidoyi farzandlari sifatida ijtimoiy hayotda tobora markaziy o‘rinni ishg‘ol qilayotgan “ruslashtirish” siyosatiga, shuningdek, Turkiston o‘lkasi uchun yangicha ishlab chiqarish usullari va vositalarining jamiyatga ta’siri, va uning ijobiy va salbiy oqibatlari, texnik taraqqiyot va uning istiqboli, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi kun tartibiga ko‘targan dolzarb masalalarga befarq qarab turmadilar. Masalan, atoqli o‘zbek olimi va noshiri, adib va dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan “Oyina” jurnali xalqimiz ongini uyg‘otishda, unga o‘zligini tanitishda, milliy qadriyatlarni ulug‘lash, zamona ilm-fan yutuqlarini targ‘ib etishda, ijtimoiy fikrni jonlantirishda katta rol o‘ynadi.

### **Asosiy qism**

Jurnal garchi 3 yilga yetar-yetmas muddat faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa ham, uning sahifalarida millat va uning haq-huquqi, tarixiy taraqqiyoti, til va adabiyot

masalalariga, dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va ularga bog'liq ravishda amalga oshirilayotgan ishlarga doir ko'plab munosabat ruhidagi maqolalar ham chop etildi. Fikrimizcha, Behbudiyning "Millat o'zini anglaganidagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar qatori teng ravishda aralasha oladi" degan fikrini keng ma'nolarda qabul qilmoq zarur. Ijtimoiy masalalar Fitrat asarlarida ham salmoqli o'rin tutadi. Adib ijodiy merosining muhim qismini tashkil etgan bu asarlar o'z vaqtida Turkiston matbuotidagina emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo'yi matbuoti sahifalarida ham bosildi. Uning "Bayonoti sayyohi hindi", "Munozara", "Oila" kabi ilk risolalari jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ma'rifatparvarlarning aksari qismi o'tgan asr boshlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borib, barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan muammolarga ham e'tibor qaratdilar. Til va yozuv, maktab va o'qish-o'qitishni isloh qilish, tarixni o'rganish, oila va nikoh, milliy qadriyatlarni o'rganish va asrab-avaylash, milliy davlatchilikni shakllantirishga munosabat kabilar jadidlarni o'ylantirgan asosiy masalalar edi. Bu masalalarni tadqiq etuvchi maqolalarni ko'zdan kechirilganda, jadidlarning jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlarning tajribalaridan xabardorligini, ayrim o'rinlarda xarakterli misollar keltirib, o'z fikrlarini dalillashga intilganliklarini kuzatish mumkin. Jadidchilik bu masalada to'g'ri yo'ldan borib, taraqqiyot yo'lidan ildam ketayotgan mamlakatlar tajribalarini topish, o'zlashtirishga harakat qildi. O'zlariga hamfikir, hammaslaklar izlashga Ismoilbek Gasprali, uning sadoqatli shogirdi Mahmudxo'ja Behbudiy yetakchilik qildilar. Binobarin "XX asr boshidagi Turkiston jadidchiligi Rusiya va xorijdagi umumturk harakatchiligi bilan juda yaqin, hatto tashkiliy, amaliy aloqada bo'lgan, deyishga asos bor". Uyg'onish jarayoni faqat jadid matbuotidagina namoyon bo'lmadi, balki ular tomonidan yaratilgan badiiy adabiyotning barcha turlarini qamrab oldi: she'riyatda, nasriy asarlarda, dramatik asarlarda yangi boshlanayotgan davrni xarakterlovchi, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni aks ettiruvchi adabiyot namunalari paydo bo'ldi. A.Avloniy, Cho'lpon,

Siddiqiy-Ajziy she'rlari, M.Behbudiyning "Padarkush", A.Qodiriyning "Juvonboz", "Baxtsiz kuyov", Fitratning "Chin sevish", "O'g'uzxon", "Hind ixtilolchilari", "Temur sag'anasi" kabi asarlari shular jumlasidandir. Jadidlar bular bilan kifoyalanmay, pedagogik asarlarida ham ona Turkiston va unda yashovchi xalqlar tarixi, millatni millat qilib turuvchi omillar, vatanparvarlik va insonparvarlik, axloq, tarbiya turlari haqida ma'lumot berishni lozim deb topdilar.

Jumladan, Abdulla Avloniy asosiy e'tiborni boshlang'ich sinflarga qaratib, dastlabki saboqlar berishga mo'ljallangan "Birinchi muallim", uning uzviy davomi bo'lgan "Ikkinchi muallim" darsliklarini yaratdi. Uning pedagogikaga doir asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi asrimiz boshlaridagi fikrlar taraqqiyotini o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Vatan tushunchasining naqadar keng ma'nomazmun ifodalashi, ularni asrab-avaylash zarurati izohlanadi. Albatta, jadidchilik oldinga surgan asosiy g'oyalari ma'rifatparvarlik va milliy istiqloq bo'lib, ular bu g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun fidokorlarcha kurashuvchi insonlar ekanliklarini amalda ham, ilm-fanda va madaniy bahslarda ham ko'rsata oldilar. Ogohlikka da'vat kabi jaranglagan bu mulohazalar keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o'z hayotiy tasdig'ini topdi.

Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilgach, mahalliy xalqning milliy va diniy qadriyatlari, urf-odatlarini oyoqosti qilindi. Mustamlakachilar islom dini zaminida vujudga kelgan odob-axloq me'yorlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini izdan chiqarishni ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu xususda turli qonunlar ham chiqarilgan ediki, ular mahalliy xalq manfaatiga mutlaqo mos kelmasdi. Masalan, Turkiston general-gubernatorligida o'rnatilgan tartib-qoidaga muvofiq, ilm va iste'dodidan qat'i nazar, 25 yoshga yetgan turkistonlik fuqaro volost boshqaruvchisi yoki qozi bo'lishi mumkin edi. Bu tartib yetarli ilmga ega bo'lmagan kishilarning qozi, mudarris, imom bo'lishiga zamin bo'lib xizmat qildi. Ushbu makkorona siyosat haqida M.Behbudiy shunday deydi: "Missionerlar tarafidan va yoyinki bizni yo'q va nobud bo'lishimizni va shariati muqaddasimizni hukmdan

qolishini xohlatadurg'on eski va mustabid hukumat odamlari tarafidan shunday zakonlar chiqardi".

Maishiy turmushni, milliy urf-odatlarni isloh qilish borasida jadidlar talaygina ishlarni amalga oshirdi. Marosimlardagi dabdababozlik va isrofgarchiliklarni keskin tanqid qilishdi. M.Behbudiy "Oyina" jurnalining 1913 yil 6-7-sonlaridagi "A'molimiz yoinki murodimiz" maqolasida musulmonlarga qarata "Kulu va ishrabu va lo tusrifu" ("Qur'oni karim", "A'rof" surasi 31-oyat. Ma'nosi: Yenglar, ichinglar lekin isrof qilmanglar!) oyatiga rioya qilgan holda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka chaqiradi. "To'y va ta'ziyaga sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib (qisqa fursatda) ovropoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar", deydi.

Keyinchalik 1917 yili hatto "Sho'roi Islomiya" tashkiloti ham bu xususda maxsus qarornoma ham chiqardi.

Shu bilan birga taraqqiyparvar jadidlar asriy milliy qadriyatlar hamda mahalliy aholining mentalitetiga xos axloq-odob me'yorlarining himoyachisi bo'lib chiqdilar. Bu xususda ma'rifatparvarlardan Cho'lponning quyidagi so'zlari fikrimizning dalilidir: "Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'paning mo'dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!

Ilohiyot sohasida bilimga ega bo'lgan jadidlar mavjud sharoitda islom tushunchasini takomillashtirish mumkinligi va kerakligini tushunib yetganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy (1909), Abdulla Avloniy (1910) va Abdurauf Fitrat (1915) o'z bilimlariga tayangan holda dunyo xalqlari ma'naviy madaniyatini saqlashda islom dinining ahamiyatiga oid o'zlarining "Muxtasar islom tarixi" kitoblarini yaratdilar.

## **Xulosa**

Jadidchilik madaniyat to'g'risidagi mazkur mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkin: - XX asr boshlarida jadid namoyandalari texnikaviy taraqqiyot asta sekin kuchayib borayotgan ijtimoiy ong turlariga ham jiddiy e'tibor berdilar. - jadidlarning o'zi ong va madaniyat to'g'risida maxsus asarlar yaratmagan bo'lsalar ham, u paytda ilmiy-nazariy qarashlar alohida soha sifatida ajralib chiqmagan, lekin ularning ilmiy va badiiy asarlarida o'zaro munosabatlar hamda ularning ijtimoiy ahamiyatiga doir muhim kuzatish va xulosalar ko'plab uchraydi. Bundan kelib chiqadiki, jadid namoyandalari qoldirgan ulkan ma'naviy merosda madaniyat rivojiga taalluqli bo'lgan tahlillar, nozik munosabat va kuzatishlarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

## **ADABIYOTLAR**

1. <https://nrm.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 24 yanvar kuni Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yil 24 yanvar).
2. Behbudiy M. Bizga islohot kerak // Najot, 1917 yil 17 aprel.
3. Behbudiy M. Bizni kemiruvchi illatlar // "Oyina" jurnali, 1915 yil, 13- son. B. 342.
4. Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // Sadoyi Farg'ona. 1914 yil 6 iyun.
5. Qosimov B., Uyg'ongan millat ma'rifati, T., Ma'naviyat, 2011.